Masalan, Muhammad Yunus o‘zining mikroqarzlar nazariyasi orqali kambag‘allikni kamaytirishda ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish muhimligini asoslab bergan. Uning tajribasida, aynan ayollarga qaratilgan mikromoliyaviy dasturlar iqtisodiy mustaqillikni oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

Joanne E. Oxley ayollar ishtirokidagi bizneslarda institutsional muhit va huquqiy barqarorlikning ta’sirini o‘rgangan holda, samarali siyosiy mexanizmlar mavjud bo‘lgan mamlakatlarda ayollar tadbirkorligining yuqori darajada rivojlanishini ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlardan T. T. Tojiboyeva ayollar tadbirkorligi rivojiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli o'rganib, ayniqsa, kreditga kirish imkoniyati, malaka oshirish kurslari va oilaviy majburiyatlar kabi ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarni aniqlagan.

Shuningdek, N. A. Sodikova ayollar tadbirkorligi ijtimoiy faollik va oilaviy farovonlik bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlab, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Dunyoda ayollar tadbirkorligi bilan bog'liq yana bir muhim yo'nalish – raqamli savodxonlik va texnologik imkoniyatlar. World Bank va UN Women kabi tashkilotlar olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan ayollar o'z biznesini tezroq kengaytiradi va bozordagi raqobatga bardosh bera oladi.

Umuman olganda, adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligining rivojlanishida moliyaviy vositalar, huquqiy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim darajasi va madaniy stereotiplarni yengish kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni tizimli ravishda chuqur tahlil qilish orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar anketali so'rovnoma, yarim tuzilgan intervyular va mavjud statistik hisobotlar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili usuli yordamida chuqur tahlil qilindi hamda ayrim holatlarda oddiy statistik usullar bilan solishtirma tahlillar o'tkazildi. Tahlil natijalari asosida asosiy omillar ajratib ko'rsatildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, so'nggi-yillarda zarurat sifatida shakllanib bormoqda. Darhaqiqat, hozirgi davrda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati sur'atlarini jadallashtirishning eng samarali yo'llaridan biri – bu ayollarning mazkur sohalardagi faol ishtirokini rag'batlantirishdir.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyati nimaga bog'liq? Qanday omillar bu ehtiyojni yuzaga keltirdi? Ushbu savollarga javob berish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlar, kuzatuvlar va ijtimoiy so'rovnomalar asosida olingan tadqiqot natijalari orqali mazkur masala yoritib beriladi (1-rasm).




1-rasm. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirib chiqaruvchi omillar

Xususan, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga turtki beruvchi eng asosiy omildir. Bozor munosabatlari sharoitida ayollar tadbirkorligi faollashuviga turli omillar ta'sir ko'rsatib, tadbirkorlik faoliyatida ayollarni qo'llab-quvvatlash va imkoniyatlardan foydalanish zarurligi yuzaga keladi. O'tkazilgan ijtimoiy (so'rovnoma asosidagi) tadqiqotlar natijasi ham fikrimizni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Aksariyat respondentlar tadbirkorlikni rivojlantirish zaruriyatini bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan, unda mavjud mexanizmning o'ziga xos (avtonomizm) xususiyati bilan bog'laydilar.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimov "bozor – ishlab chiqarishni odamlarning o'sib boruvchi va muttasil o'zgarib turuvchi ehtiyojlariga eng yuqori darajada yo'naltirilishni ta'minlovchi mexanizm" deb aytadi. Ushbu fikrga qo'shilgan holda, bozorni turli xil mahsulotlar, kundalik ehtiyoj tovarlari bilan ta'minlashda ushbu mexanizmning unsurlaridan bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati katta ekanligini alohida e'tirof etamiz. "Bozor iqtisodiyoti – bu avvalambor erkin tadbirkorlik iqtisodiyotidir, ...biznesning keng ommalashuvidir" . Buning isboti sifatida o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar natijalariga tayanish mumkin. Ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, tadbirkor ayollarning aksariyati bozor tizimiga o'tishning naqadar to'g'riligini ochiq e'tirof etganlar.

O'z navbatida, tadbirkor ayollar ko'pincha yangi bozor imkoniyatlarini aniqlaydilar va yaratadilar. Ayniqsa, xizmat ko'rsatilmagan yoki e'tibordan chetda qolgan sohalarda faoliyat yuritadilar. Bu holat bozorlarning rivojlanishiga va umumiy bozor landshaftining kengayishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayollar tadbirkorligi tufayli ular bozorda o'z faoliyat maydonini topishga muvaffaq bo'ladilar.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi omillardan biri – bu gender tengligining rivojlanishidir. Mamlakatda gender munosabatlari izchil shakllanib borgani sari ayollarning jamiyatdagi o'rni kengroq e'tirof etilmoqda. Ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan e'tibori ham ortib bormoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan 9 ta vazifa ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, 2030-yilga kelib xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajasida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har ikki jins vakillarining tengligi kafolatlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019-yildagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonunida gender tengligini ta'minlash masalasiga davlat siyosati darajasida yondashilmoqda. Ushbu qonunga asosan, bu sohadagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya hamda boshqa tegishli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jinsga asoslangan bevosita yoki bilvosita kamsitishlarni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosatini amalga oshirishga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rilishi nazarda tutilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda yuqori lavozimlarda faoliyat yuritayotgan rahbar ayollar soni ham ortib bormoqda. O'zbekiston tarixida ilk bor parlamentdagi xotin-qizlar ulushi BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, qariyb 32 foizni tashkil etdi va mamlakat 190 ta parlament orasida 37-o'rinni egalladi. Boshqaruv lavozimlarida xotin-qizlar ulushi 27 foiz, siyosiy partiyalarda 44 foiz, oliy ta'lim tizimida 40 foiz, tadbirkorlikda esa 35 foizga yetdi (2-rasm).




2-rasm. O'zbekistonda eng nufuzli sohalarda xotin-qizlar ulushi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gender xilma-xilligi bo'lgan kompaniyalar yaxshi moliyaviy natijalarga ega. Ayollar tadbirkorligi yanada muvozanatli va samarali biznes muhitini yaratishga yordam beradi.

O‘zbekistonda ayollar aholining katta qismini tashkil qiladi, ularning ko‘nikma va iste’dodidan qancha ko‘p foydalanilsa, jamiyat taraqqiyoti uchun maqbuldir. Xotin-qizlar tadbirkorligini rag‘batlantirish bu salohiyatdan samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni yanada unumli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Xususan, 2023-yilda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Va bu boradagi yutuqlarimiz xalqaro miqyosda alohida e’tirof etilyapti.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning zaruriyatini keltirib chiqaruvchi navbatdagi omillardan biri – kambag‘allikka qarshi kurashish.

Fikrimizcha, har bir mamlakat kambag‘allikka qarshi kurashish borasida o‘zining jiddiy chora-tadbirlarini qo‘llab boradi. Kambag‘allikka qarshi kurashishda olib boriladigan ijtimoiy siyosat, har bir davlat siyosatida ustuvor masalalardan hisoblanadi. Masalan, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatning «...asosiy tamoyillaridan biri – har bir fuqaro boy bo‘lsa – davlat boy bo‘ladi, har bir oila farovon bo‘lsa – mamlakat farovon bo‘ladi» deb e’tirof etilishi bekor emas. Bu esa mamlakatda tadbirkorlik orqali fuqarolar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston bozor munosabatlariga endigina o‘tgan davrlarda kambag‘allik aholining turli qatlamlariga o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Jumladan, ayollar ham kambag‘allik muammolari bilan yuzma-yuz keldilar. Mamlakatda joriy etilgan o‘zbek modeli asosidagi kuchli ijtimoiy himoya tamoyillariga amal qilinayotgan bo‘lsa-da, ushbu muammo hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Jamiyatimiz tarkibidagi ayollarning kambag‘allikka qarshi kurashishga bo‘lgan ehtiyoji ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishiga olib keldi. Ayollar shuni angladilarki, faqat tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni yengib, iqtisodiy mustaqillikka erishish mumkin. Mamlakatimizda tadbirkorlik qashshoqlikdan chiqishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Aynan shu vositadan foydalangan ayollar o‘z maqsadlariga erishish, manfaatdorlikka intilish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlariga ega bo‘ldilar.

Darhaqiqat, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi qashshoqlikni kamaytirishga xizmat qiladi. O‘z biznesiga ega bo‘lgan ayollar uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishi, oilalari uchun sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarini ta’minlashi, jamiyatning iqtisodiy farovonligiga munosib hissa qo‘shishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kungacha insoniyat kambag‘allikni to‘liq bartaraf eta olgani yo‘q. U hanuzgacha global muammo bo‘lib qolmoqda va uni bartaraf etish masalasi BMT tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan global barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Innovatsiyalar tufayli yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlar ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi omillardan biriga aylandi. Ayollarning ilmiy nuqtayi nazardan turlicha yondashuvlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga o‘ziga xos qarashlari innovatsion yechimlar ishlab chiqilishiga va yangi mahsulotlar yaratilishiga turtki bermoqda (3-rasm).




3-rasm. Kambag‘allikka qarshi kurashish tendensiyalarida ayollar tadbirkorligining rivojlanishi[1]

1 Расм муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Kapitalizm formatsiyasi rivojlana boshlagan davrdan boshlab, tadbirkor ayollar bozorda ijodkorlik va raqobatbardoshlikni oshirib, oʻziga xos gʻoya va yondashuvlarni taklif eta boshladilar. Natijada ular bozor muhitiga sezilarli taʼsir koʻrsata boshladilar. Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, ayollar qadimdan turli yangiliklar va ixtirolarni amalga oshirganlar. Ularning ushbu yutuqlari ayollar tadbirkorligining tarixiy ildizlari chuqur ekanligini va bu faoliyat alohida eʼtirofga loyiq ekanini yaqqol namoyon etadi (2-jadval).

2-jadval. Ayollar tadbirkorligi tufayli amalga oshirilgan ixtirolar[2]

| Amalga oshirilgan ixtirolar | Ixtirochi ayol tadbirkor | Ixtiro-yili | Mamlakat |
|---|---|---|---|
| Sirkulyar arra | Tabita Bebbitt | 1810 y. | AQSh |
| **Suv osti kemasining durbini** | Sara Meter | 1845 | AQSh |
| **Goʻsht konservalari** | Nadejda Kojina | 1873 | Rossiya |
| **Idish-tovoq yuvuvchi qurilma** | Jozefina Kokreyn | 1886 | AQSh |
| **Qor kurash mashinasi** | Sintiya Vestover | 1892 | AQSh |
| **Tovushni pasaytiruvchi asbob** (glushitel) | El Dolores | 1917 | maʼlumot yoʻq |
| **Tagliklar (pamperslar)** | Marion Donovan | 1917 | AQSh |
| **Tabiiy gazda ishlaydigan isitish qozoni** | Elis Parker | 1919 | AQSh |

Masalan, 2-jadvalda bir qator innovatsiyalar ayollar tomonidan joriy etilganligining xronologik tartibi keltirilgan boʻlib, u butun dunyo miqyosida ayollar faol va ijodkor jins sifatida jamiyat taraqqiyotida alohida oʻringa ega ekanligini isbotlaydi. Biroq, ushbu jadvaldagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, ixtirolarning aksariyati AQSh fuqaroligiga ega boʻlgan ayollar tomonidan amalga oshirilgan, faqat bitta ixtirogina Rossiya fuqarosi boʻlgan ayolga tegishli. Ammo bu holat boshqa mamlakatlarda ayollar tadbirkorligi rivojlanmagan degan xulosa chiqarishga asos boʻla olmaydi. Aksincha, rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarda ham ayollar tadbirkorligi bosqichma-bosqich taraqqiy etib bormoqda.

Texnologik muvaffaqiyatlar esa oʻz navbatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ilm-fan va texnologik yutuqlar raqamli texnologiyalar rivojiga kuchli turtki berdi. Ayniqsa, soʻnggi-yillarda raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning jadal rivojlanishi tadbirkorlar, xususan ayollar uchun bozor muhitiga kirishdagi toʻsiqlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Ayollar ushbu texnologiyalardan foydalangan holda biznes ochish, uni samarali boshqarish va jahon bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega boʻlib bormoqda.

Agar soʻnggi oʻn-yil ichida insoniyat erishgan texnologik muvaffaqiyatlarni tahlil qiladigan boʻlsak, ularning mazmuni quyidagilardan iborat (4-rasm):




4-rasm. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi omil sifatidagi texnologik muvaffaqiyatlarning soʻnggi 10-yillardagi yutuqlari tahlili[3]

2 Манбалар: https://aniq.uz/yangiliklar/ayollarning-eng-sara-ixtirolari ; https://www.houzz.ru/statyi/korolevy-byta-zhenshchiny-izobretateli-kotorye-sdelali-nashu-zhizny-proshche-stsetivw-vs~61851146

3 Расм муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Smartfonlarni paydo boʻlishi. Zamonaviy smartfonlar muayyan hudud aholisi hayotining tom ma'noda barcha sohalarida qoʻllaniladi: ya'ni, inson smartfonlar yordamida ishlaydi, marshrutlarni aniqlaydi, oʻrganadi va zavqlanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning paydo boʻlishi. Bunday tarmoqlar asta-sekin foydalanuvchilar oʻrtasidagi muloqot uchun oddiy xizmatdan oʻz brendini sotish va rivojlantirish uchun kuchli marketing vositasiga aylandi.

Katta ma'lumotlarni ixchamlashtirish imkoniyatlarining yuzaga kelishi. Soʻnggi 40-yil ichida kompyuterlarning kuchi shunchalik oshdiki, hisob-kitoblar tezligi atom hajmi bilan chegaralanadi. Koʻpgina olimlar kompyuter texnologiyalarining rivojlanish yoʻnalishini quvvatni oshirishdan ma'lumotlarni qayta ishlashga oʻzgartirish haqida gapirishmoqda.

Neyrotarmoqlarning rivojlanishi, ya'ni, bu matematik model, shuningdek, inson miyasining ishi asosida modellashtirilgan dasturiy ta'minotni amalga oshirish. Ma'lumotlarni toifalarga ajratish neyrotarmoqlardan eng keng tarqalgan foydalanish hisoblanadi.

Muayyan shaxsga xos noyob qobiliyatning insoniyat taraqqiyotiga ta'siri, masalan Ilon Mask fenomeni. Bu kabi insonlar tevarak atrofga katta ta'sir koʻrsatadi va bunday ta'sirdan ayollar ham bebahra qolmagan. Undan ilxomlangan ayollar oʻz tadbirkorligi tufayli yangi davrga xos yangi mahsulotlar ishlab chiqarib, jahon brendlari qatoridan oʻrin olishga harakat qilmoqdalar. Mask texnologik dunyoni oʻzgartirdi va koʻplab ixtirochi va tadqiqotchilarni ilhomlantirdi.

Elektron toʻlovlarning paydo boʻlishi. Ma'lumki, 2000-yillarda naqd pulsiz toʻlov xizmatlari paydo boʻldi: WebMoney, Qiwi, PayPal, odamlar bunga uzoq vaqt va haniksirab koʻnikishdi.

Kriptovalyutalarni paydo boʻlishi. 2010-yillarda kriptovalyutalar keng qoʻllanila boshlandi. Asosan, raqamli pul – bu kuchli kompyuterlar yordamida hal qilinadigan murakkab matematik kodlar. Bu butunlay markazlashmagan tizim boʻlib, unda elektron pul doimiy ravishda ishlab chiqariladi[4].

3D printerlarni paydo boʻlishi. Masalan, 1900-yillarda 3D printerlar keng tarqaldi. 3D printerlar an'anaviy usullardan foydalangan holda amalga oshirish uchun juda koʻp vaqt va resurslarni talab qiladigan murakkab ob'ektlarni yaratishni optimallashtirish imkonini beradi. 3D bosib chiqarishni qoʻllash juda keng: taqdimotlar va ta'lim uchun murakkab modellarni modellashtirish, tibbiyot, funksional testlar, kiyim-kechak ishlab chiqarish va boshqalar.

Onlayn ta'limni rivojlanishi, ya'ni, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim sohasiga ham oʻz ta'sirini oʻtkazdi. Chet elda birinchi onlayn loyihalar ochilgan, masalan, ommaviy ochiq onlayn kurslar Coursera va edX platformalari orqali tashkil etilib, bu yetakchi xorijiy universitetlar oʻqituvchilarining onlayn ma'ruzalar oʻqiydigan platformadir. Rossiyada bunday platformaning "Ochiq ta'lim", "Universarium", "Lectorium", "Intuit" kabi analoglari eng mashhurdir[5]. Onlayn ta'limda ayollarning ishtiroki ommalashdi.

Bulutli xizmatlar (servislar)ni ishga tushishi. Insoniyat birinchi marta kompyuter davriga kirganida, ma'lumotlar moddiy tashuvchilar – floppi, kompakt disklar, qattiq disklarda saqlangan. Endilikda har qanday qurilmadan foydalanish mumkin boʻlgan fayllarni saqlash uchun shaxsiy bulutli xizmatlardan foydalanishga oʻtildi. Videofayl yoki hujjatlarni boshqa shaxsga berish uchun yoningizda SD yoki xotira kartasi boʻlishi shart emas. Buning uchun "bulutdagi" materiallarga kirishni sozlash va havolani doʻst yoki hamkasb resursiga yuborish kifoya.

Shunday qilib texnologik muvaffaqiyatlar omil sifatida ayollarni faollashtirdi va ulardagi tadbirkorlik qobiliyatini ilxomlantirishga olib keldi.

Navbatdagi oʻrganilgan omil – jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy oʻzgarishlar boʻlib, bu omil ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu ham alohida omil sifatida qayd etiladi. Chunki XXI-asrning zamonaviy ayoli kuchli va erkakka teng boʻlishga intiladi. Ayollar oʻzini kamsituvchi, hurmatsiz munosabatda boʻlishiga yoʻl qoʻymaydi. Ular shu bilan toʻxtamaydi, ayollar koʻproq narsani xohlaydi, faoliyatini cheklaydigan doiralarga toqat qilmaydi, maqsadini aniq bir narsada koʻrmaydi. Ayollar bugungi kunda joʻshqin. Shuning uchun ayollar tadbirkorligi an'anaviy gender rollari va stereotiplariga qarshi chiqishi mumkin, bu esa kengroq ijtimoiy va madaniy oʻzgarishlarga olib keladi. Muvaffaqiyatli tadbirkor ayollar namuna boʻlib, boshqa ayollar va qizlarni oʻz biznesini boshlashga ilhomlantirishi mumkin[6].

Hukumatning yondashuvi va siyosiy qoʻllab-quvvatlovi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etiladi. Bu yondashuv ayollar tadbirkorligini faollashtirishga

---

4 Манба: https://itez.com/ru/blog/markets/women-in-the-crypto-industry

5 Изоҳ: Онлайн таълим янги замоннинг асосий талабларига жавоб беради. Билим олишга исталган вақтда ва исталган жойда кириш, умр бўйи ўрганиш имкониятини яратади. Дарслар индивидуал равишда тузилади ва ҳар бир фойдаланувчининг ўрганиш тезлиги ва билим даражасини ҳисобга олади. Ўз навбатида, таълим муассасалари ўз маблағларини нафақат китобларнинг қоғоз нусхалари, балки электрон нусхалари билан ҳам тўлдиради. Замонавий электрон кутубхона тизимлари ёрдамида университетлар ўз талабаларига катта ҳажмдаги таълим мазмунини ва ундан дунёнинг исталган нуқтасидан фойдаланиш имкониятини беради.

6 Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

qaratilgan huquqiy asoslarni yaratadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Masalan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar va qabul qilingan qonunlar asosida, hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 485 mingdan ortiq tadbirkorlik sub'yektlaridan 2024-yilning yanvar holatiga ko'ra 417 ming 80 tasi kichik biznes sub'yektlari hisoblanadi. Barcha sohalarda tadbirkorlar soni hamda ularning faoliyat doirasi kengayib bormoqda va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi tobora ortib borayotgani e'tiborga loyiqdir.

Fikrimizcha, bugungi kunda ayol nafaqat mehribon ona, balki jamiyatning faol ishtirokchisi va tashabbuskori sifatida ham o'zini yaqqol namoyon qilmoqda. Shu jihatdan yurtimizning eng chekka tumanlarida, eng olis mahallalarida ham o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor ayollarimizning borligi quvonarli holatdir. Muhimi, ularning kasb-hunarli va tadbirkor bo'lishiga ko'maklashish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari ham muntazam nazoratda turibdi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ushbu sohaga oid yigirmadan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilingan.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida hukumatlar va xalqaro tashkilotlar ayollar tadbirkorligining ahamiyatini tan olib, uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etmoqda. Bu, ayniqsa, tadbirkor ayollar uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslarga kirish, treninglar, murabbiylik tizimi hamda tarmoq imkoniyatlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy o'sish ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiruvchi muhim omillardan biri bo'lib, u ayollar faolligining ortishiga turtki beradi. Iqtisodchi A. O'lmasov "Iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning ilgarilab borishi va ishlab chiqarilayotgan tovarlar hamda xizmatlar hajmining ko'payib borishidir", deb qayd etadi. Uning fikricha, har qanday jamiyatda ortib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va farovon hayot tarzini ta'minlash uchun iqtisodiy o'sish muqarrar zaruratdir.

Shu kabi taraqqiyot jarayonlarida ayollar tadbirkorligi bugungi kunda alohida e'tirofga loyiq yo'nalish bo'lib bormoqda. Chunki ayollar tadbirkorligi iqtisodiyotni rivojlantirish, diversifikatsiyalash va barqarorlashtirishda muhim salohiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Ayollar biznesni boshlash va uni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratmoqda, innovatsiyalarni joriy etmoqda va yangi sohalarni o'zlashtirib, umumiy iqtisodiy o'sishga o'z hissasini qo'shmoqda. Milliy iqtisodiyotdagi o'sish jarayonlari ayollar tadbirkorligini yanada faollashtirib, deyarli barcha tarmoqlarda ularning ishtirokini ta'minlamoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Xalqaro *The Boston Consulting Group* (BCG) tahlilchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, agar ayollar erkaklar bilan teng asosda tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilinsa, bu jahon yalpi ichki mahsulotini 3–6 foizga, global iqtisodiyot hajmini esa 2,5 trilliondan 5 trillion dollargacha oshirish imkonini beradi, degan xulosaga kelinmoqda[7].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayollar psixologiyasida bozorga xos dunyoqarashning shakllanishi ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiruvchi sub'yektiv omillar qatoridan joy oladi. Biroq ushbu omil bir nechta qo'shimcha elementlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, yuqori daromad olish istagi, o'zini o'zi anglash, professional tajribaga ega bo'lish, qisman bo'lsa-da boshlang'ich kapital mavjudligi, shuningdek boshqa odamlarga rahbarlik qilishga moyillik – bularning barchasi ayollar psixologiyasida shakllanib, ularning bozorga oid dunyoqarashini kengaytirmoqda. Shu bilan bir qatorda, oilaparvarlik, mehnatsevarlik, oqibatni saqlash kabi fazilatlarni o'zida mujassam etgan ayollar, nostandart vaziyatlarda mustaqil fikrlash, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa ularni tadbirkorlik faoliyatiga intilishga undovchi muhim psixologik omil sifatida e'tirof etiladi (*1-rasmga qarang*).

Xulosa qilib aytganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiruvchi barcha omillar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, rag'batlantirish va tizimli qo'llab-quvvatlash nafaqat alohida xotin-qizlarga, balki butun jamiyatga, uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mehnat bozori va iqtisodiy faoliyatdagi gender tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Bu esa ayollarga moliyaviy mustaqillikka erishish, yuqori lavozimlarni egallash, rahbarlik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Umuman olganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish gender tenglikni ta'minlash yo'lida muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида". ЎРҚ-562-сон. 2 сентябрь, 2019 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Т.: «O'zbekiston» нашриёти, 2021. 138 б.


7 Лаврова И. Женское дело. // https://plus.rbc.ru/news/5dda0b867a8aa967dba741ba

3. Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. -Т.: 1995. 34 бет.
4. Арипов О.А. КИчик бизнес ва тадбиркорлик. Дарслик. -Наманган. 2025. – 353 б.
5. Арипов О.А. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда аёлларнинг ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил. // https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/28_О.Арипов.pdf
6. Райзберг Б. А. Основы бизнеса. (учебное пособие). -М.: Ось-89, 1996. С. 6.
7. Ишмуратова С. Аёллар мамлакатимида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг фаол иштирокчиси. // Янги Ўзбекистон рўзномаси, 2023 й. 16 декабрь, 262-сон.
8. Лаврова И. Женское дело. // https://plus.rbc.ru/news/5dda0b867a8aa967dba741ba
9. https://itez.com/ru/blog/markets/women-in-the-crypto-industry
10. https://lala.lanbook.com/10-tekhnologicheskih-dostizhenij-za-poslednie-10-let
11. https://aniq.uz/yangiliklar/ayollarning-eng-sara-ixtirolari
12. https://www.houzz.ru/statyi/korolevy-byta-zhenshchiny-izobretateli-kotorye-sdelali-nashu-zhizny-proshche-stsetivw-vs~61851146

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz